QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.11.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SIRADJEV ILXOM TOXIROVICH

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

UDK: 332.14:005.51:502.131.1(043)

Doktorlik (DSc) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

SIRADJEV ILXOM TOXIROVICH
Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning integratsiyalashgan menejment mexanizmlarini takomillashtirish……..3

СИРАДЖЕВ ИЛХОМ ТОХИРОВИЧ
Совершенствование механизмов комплексного управления для повышения эффективности регионального управления в контексте охраны окружающей среды и зеленой экономики. …….38

SIRADJEV ILKHOM TOXIROVICH
Improving integrated management mechanisms to increase the efficiency of regional management in the context of environmental protection and a green economy……76

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……81

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.11.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SIRADJEV ILXOM TOXIROVICH

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.DSc/Iqt1367 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Ilmiy maslahatchisiz**
Rasmiy opponentlar:	**Ochilov Akram Odilovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Muxitdinov Xudoyor Suyunovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Ergashev Erkin Iroqovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.11.03-raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “ 28 ” 11 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: info@qarshidu.uz).

Dissertatsiyasi bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (587-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “ 13 ” 11 kuni tarqatildi.

(2026-yil “ 13 ” 11 dagi 46-raqamli reyestr bayonnomasi).

D.X. Nabiyev
Ilmiy darajalar beruvchi kengash raisi, i.f.d., professor

G‘.A. Nabiyev
Ilmiy darajalar beruvchi kengash kotibi, i.f.d. (DSc), professor

A.O. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyotga o‘tish yetakchi mamlakatlarda tizimli va kompleks yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqida “Yashil kelishuv” doirasida 2030-yilga qadar issiqxona gazlari chiqindilarini kamida 55% ga qisqartirish, 2050-yilga borib esa to‘liq karbon neytrallikka erishish maqsad qilingan. Shu maqsadda qayta tiklanuvchi energiya ulushi hozirda 22-25% ga yetkazilgan bo‘lib, ayrim davlatlarda bu ko‘rsatkich 40% dan ham oshgan. Energiya samaradorligini oshirish natijasida energiya iste’moli o‘rtacha 15-20% ga kamaytirilgan. AQShda esa yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun 370 milliard dollardan ortiq investitsiyalar yo‘naltirilib, 2025-yilga borib elektr energiyasining qariyb 30% ini quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanuvchi manbalar hisobiga ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Shuningdek, sanoat va transport sohalarida karbon chiqindilarini kamaytirish 20-30% atrofida ta’minlangan. Ushbu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari aniq strategik ko‘rsatkichlar, investitsiyalar va samarali boshqaruv mexanizmlari asosida olib borilmoqda.[1].

Jahon mamlakatlari, Osiyo va boshqa rivojlanayotgan hududlarda ham yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari yuqori sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Xususan, Xitoyda 2020-2025-yillar davomida qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari 40% dan ortiq oshirilib, umumiy energiya ishlab chiqarish tarkibida uning ulushi qariyb 30% ga yetkazildi, quyosh va shamol energetikasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi esa yiliga 100 milliard dollardan oshmoqda. Yaponiyada energiya samaradorligini oshirish siyosati natijasida sanoat korxonalarida energiya sarfi 15% gacha qisqartirildi, qayta tiklanuvchi energiya ulushi esa 20% ga yaqinlashdi. Janubiy Koreyada “Yashil o‘sish” strategiyasi doirasida 2030-yilgacha karbon chiqindilarini 24-30% ga kamaytirish hamda yashil texnologiyalarga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar ulushini 2 barobar oshirish rejalashtirilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy boshqaruvni takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va integratsiyalashgan menejment mexanizmlarini joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa ekanligini yaqqol namoyon etadi.[2]

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalar, ekologik monitoring tizimlari va investitsion loyihalar keng joriy qilinmoqda. Xorijiy investitsiyalar, ayniqsa energetika va infratuzilma sohalarida, yashil iqtisodiyot elementlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu hududiy boshqaruv tizimlarining integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Shuningdek, davlat

[1] OECD. (2024). OECD Digital Economy Outlook 2024. OECD Publishing.
[2] IFLA. (2022). IFLA Trend Report 2022 Update: Libraries in the Digital Age. International Federation of Library Associations and Institutions.

dasturlari orqali sanoatni modernizatsiya qilish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar natijasida O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilib, mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirish uchun muhim institutsional asoslar shakllantirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 26-sentabrdagi PF-149-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta’minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2025-yil 16-sentabrdagi PQ-286-son “Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, shuningdek, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni[3] hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan atrof-muhitni muhofaza qilish, “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish, tabiiy va energetik resurslardan samarali foydalanish, hududlarning ekologik barqarorligini ta’minlash, raqamli texnologiyalar asosida hududiy boshqaruv va monitoring tizimlarini takomillashtirishga doir vazifalarni amalga oshirishda Tadqiq etilayotgan dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiq etilayotgan dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning integratsiyalashgan menejment mexanizmlarini takomillashtirishga bag‘ishlangan masalalar bo’yicha Edward B. Barbier, David Pearce, Anil Markandya va Edward B. Barbier, Herman E. Daly, Jeffrey D. Sachs, Tim Jackson kabi xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan.[4]

---

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni; 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori; 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori; 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni; 2024-yil 26-sentabrdagi PF-149-son Farmoni; 2025-yil 16-sentabrdagi PQ-286-son qarori; 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – LexUZ.

[4] Edward B. Barbier. (2010). A global green new deal: Rethinking the economic recovery. Cambridge University Press. David Pearce., Anil Markandya., & Edward B. Barbier. (1989**).** Blueprint for a green economy. Earthscan. Jeffrey D. Sachs. (2015). The age of sustainable development. Columbia University Press. Tim Jackson. (2017).

MDH davlatlari olimlardan Bobylev, S. N, Zakharov, V. M, Ketova, N. P, Granberg, A. G, Glazyev, S. Y, Khachaturova, T. S, Inshakov, O. V, Danilov-Danilyan, V. I va boshqalar[5] ushbu mavzuga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning integratsiyalashgan menejment mexanizmlarini takomillashtirish bo’yicha esa O‘zbekistonlik olimlardan Xodiyev, B.Y, Abdurahmonov, Q.X, G‘ulomov, S.S, Rakhimov, R, Kholmatov, U. A, Tursunov, D.B,Saidov,A.X, Eshov,B.B, va boshqalarning[6] ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan. Biroq, Tadqiq etilayotgan mualliflar tadqiqotlarida atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning integratsiyalashgan menejment mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va institutsional omillarning o‘zaro bog‘liqligini yagona boshqaruv tizimi asosida muvofiqlashtirishning nazariy-uslubiy jihatlari yetarli darajada yoritilmagan. Xususan, hududlarning tabiiy-resurs salohiyatidan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, yashil investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni rag‘batlantirish, resurs hamda energiya samaradorligini oshirish, raqamli ekologik monitoring tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari, tadbirkorlik subyektlari va jamoatchilik o‘rtasidagi institutsional hamkorlikni kuchaytirishga asoslangan integratsiyalashgan menejment mexanizmlarini takomillashtirishning konseptual yondashuvlari kompleks tadqiq etilmagan. Shu bilan birga, mintaqaviy boshqaruv samaradorligini iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlar tizimi orqali integral baholash, yashil rivojlanishga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik bog‘liqligini aniqlash hamda hududlarning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan strategik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qarshi Davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Prosperity without growth: Foundations for the economy of tomorrow (2nd ed.). Routledge. Herman E. Daly. (1996). Beyond growth: The economics of sustainable development. Beacon Press.

[5] Bobylev, S. N. (2017). Sustainable development and green economy in Russia. Moscow: Moscow State University. Zakharov, V. M. (2015). Ecological policy and sustainable development. Moscow: KMK Scientific Press. Ketova, N. P. (2018). Regional economy and sustainable development. Rostov-on-Don: Southern Federal University Press. Granberg, A. G. (2004). Foundations of regional economics. Moscow: Higher School of Economics. Glazyev, S. Y. (2010). Strategy of advanced development of the Russian economy. Moscow: Economics.
Khachaturova, T. S. (2016). Sustainable development and ecological economics. Moscow: INFRA-M. Inshakov, O. V. (2005). Institutional theory of economic development. Volgograd: VolSU Press. Danilov-Danilyan, V. I. (2013). Sustainable development: Theoretical and methodological aspects. Moscow: Nauka.

[6] Xodiyev, B. Y. (2019). O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish strategiyasi. Toshkent: Iqtisodiyot. Abdurahmonov, Q. X. (2020). Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali**.** Toshkent: Fan.
G‘ulomov, S. S. (2021). Raqamli iqtisodiyot asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya. Rakhimov, R. X. (2018). Regional development and investment policy**.** Tashkent: Economy. Kholmatov, U. A. (2020). Hududiy iqtisodiyot va barqaror rivojlanish. Toshkent: Iqtisodiyot. Tursunov, D. B. (2021). Ekologik iqtisodiyot asoslari. Toshkent: Fan. Saidov, A. X. (2019). Barqaror rivojlanishning huquqiy asoslari. Toshkent: Adolat. Eshov, B. B. (2022). Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti**.** Toshkent: Iqtisodiyot.

Tadqiqotning maqsadi atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning integratsiyalashgan menejment mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

yashil iqtisodiyot va barqaror taraqqiyot konsepsiyalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning mintaqaviy boshqaruv tizimidagi nazariy-uslubiy asoslarini tizimlashtirish.

hududiy boshqaruvda ekologik omillarning o‘rni, funksional ahamiyati va boshqaruv samaradorligiga ta’sir etish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash.

moslashuvchan, yashil va raqamli boshqaruv yondashuvlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida mintaqaviy boshqaruvning konseptual-nazariy modelini shakllantirish.

O‘zbekiston hududlari kesimida ekologik va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish hamda hududlarning yashil rivojlanish darajasini ifodalovchi asosiy indikatorlarni baholash.

hududiy boshqaruv natijadorligiga ekologik, iqtisodiy, institutsional va raqamli omillarning ta’sir darajasini aniqlash hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini baholash.

hududlarda barqaror rivojlanish va yashil boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda yashil iqtisodiyotga o‘tishning muqobil rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish.

yashil boshqaruv samaradorligini iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy, institutsional va innovatsion ko‘rsatkichlar asosida kompleks baholashga xizmat qiluvchi integral baholash uslubiyotini ishlab chiqish.

moslashuvchan, yashil va raqamli boshqaruv tamoyillariga asoslangan integratsiyalashgan menejment modelini takomillashtirish hamda yashil investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, klaster, sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanish mexanizmlarini asoslash.

ekonometrik modellashtirish va prognozlash asosida mintaqaviy yashil boshqaruv samaradorligini oshirishning ustuvor strategik yo‘nalishlarini aniqlash hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati Ekologiya va iqlim o‘zgarishi bosh boshqarmasining atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvni amalga oshirish faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning integratsiyalashgan menejment mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy, institutsional va boshqaruv munosabatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida tizimli va kompleks yondashuv, ilmiy-nazariy tahlil va umumlashtirish, qiyosiy va statistik-dinamik tahlil, hududiy guruhlash, ko‘rsatkichlarni normallashtirish, indeks va integral baholash, konseptual modellashtirish, ko‘p omilli regressiya modelini shakllantirish hamda ssenariyli prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat

mintaqaviy ekologik boshqaruv tizimi davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyatlar va xususiy sektor o‘rtasidagi ko‘p darajali institutsional hamkorlik asosida integratsiyalashgan model sifatida taklif etilib, markaziy element sifatida davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmining tizimli roli asoslab berilgan;

ekologik standartlar, kvotalar va rag‘batlantiruvchi mexanizmlar o‘zaro bog‘liqlikda qo‘llanilganda boshqaruv samaradorligi oshishi ilmiy jihatdan izohlangan hamda raqamli texnologiyalarni ekologik boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish orqali monitoring, nazorat va Qaror qabul qilish tizimini takomillashtirish imkoniyati konseptual model darajasida ishlab chiqilgan;

“agile–yashil–raqamli” integratsiyalashgan boshqaruv modeli asosida mintaqaviy ekologik boshqaruv samaradorligini miqdoriy jihatdan oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan bo‘lib, modelni joriy etish natijasida boshqaruv jarayonlarida Qaror qabul qilish tezligi o‘rtacha 25–30% ga oshishi, resurslardan foydalanish samaradorligi 20–25% ga yaxshilanishi, ekologik zararli chiqindilar hajmi 15–20% ga kamayishi va raqamli texnologiyalar orqali monitoring hamda nazorat aniqligi 30–35% ga ortishi ilmiy jihatdan asoslangan;

barqaror rivojlanish modeli jamiyat, iqtisodiyot va ekologiya o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyalashgan tizim sifatida takomillashtirilib, ularning kesishgan nuqtalarida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik va ekologik-iqtisodiy omillarning kompleks ta’siri ilmiy asosda tizimlashtirilgan;

yashil investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik va klaster mexanizmlarining integratsiyasi asosida boshqaruv samaradorligini oshirishning kompleks KPI modeli ishlab chiqilib, 2030-yilgacha avtomatlashtirish darajasini 72 %, foydalanuvchi qoniqishini 0,90 va onlayn murojaatlarni 7 500 taga yetkazish prognozlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ekologik boshqaruv tizimi davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyatlar va xususiy sektor o‘rtasidagi ko‘p darajali institutsional hamkorlik asosida integratsiyalashgan model asosan markaziy element sifatida davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmining tizimli roli ijobiy va iqtisodiy rag’batlantirishni amalga oshirgan;

raqamli texnologiyalarni ekologik boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish orqali monitoring, nazorat va Qaror qabul qilish tizimini takomillashtirish imkoniyati konseptual model darajasi ekologik standartlar, kvotalar va rag‘batlantiruvchi mexanizmlar o‘zaro bog‘liqlikda qo‘llanilganda boshqaruv samaradorligi oshishi asoslab berilgan;

“yashil iqtisodiyot” tamoyillarini kompleks joriy etish imkonini beruvchi innovatsion boshqaruv mexanizmi “agile–yashil–raqamli” integratsiyalashgan boshqaruv modeli asosida mintaqaviy ekologik boshqaruv samaradorligini miqdoriy jihatdan oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan bo‘lib, modelni joriy etish natijasida boshqaruv jarayonlarida Qaror qabul qilish tezligi o‘rtacha 25–30% ga oshishi, resurslardan foydalanish samaradorligi 20–25% ga yaxshilanishi, ekologik zararli chiqindilar hajmi 15–20% ga kamayishi va raqamli texnologiyalar orqali monitoring hamda nazorat aniqligi 30–35% ga ortishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek,

ushbu yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni 10–15% ga oshirish bilan birga, ekologik barqarorlikni amalga oshirish imkoniyati tadqiq etilgan;

barqaror rivojlanish modeli jamiyat, iqtisodiyot va ekologiya o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyalashgan tizim sifatida takomillashtirilib, ularning kesishgan nuqtalarida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik va ekologik-iqtisodiy omillarning kompleks ta’siri ilmiy asosda tizimlashtirilgan. iqtisodiy o‘sish samaradorligi 20–25% ga oshishi, resurslardan foydalanish samaradorligi 15–20% ga yaxshilanishi, atrof-muhitga salbiy ta’sirlar 10–15% ga kamayishi hamda ijtimoiy farovonlik ko‘rsatkichlari 12–18% ga ortishi asoslab berilgan bo‘lib, bu esa barqaror rivojlanishni ta’minlashda uch asosiy sektorning uyg‘un va muvozanatli rivojlanishini ta’minlovchi innovatsion model sifatida ilmiy jihatdan taklif etilgan;

yashil investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik (PPP) hamda klaster mexanizmlarining o‘zaro integratsiyalashgan holda boshqaruv samaradorligiga ta’siri kompleks yondashuv asosida tahlil kompleks KPI prognozlari (avtomatlashtirish, uptime, foydalanuvchi qoniqishi va boshqalar) tizimini boshqariladigan va barqaror o‘sish trayektoriyasiga o‘tkazish imkonini berdi. Prognozlarga ko‘ra, 2030-yilga borib avtomatlashtirish darajasi 72 %, foydalanuvchi qoniqishi 0,90, onlayn murojaatlar soni 7500 taga yetishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan ilmiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi, Qashqadaryo viloyati Ekologiya va iqlim o‘zgarishi bosh boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi hamda Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma’lumotlaridan olinganligi, shuningdek, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflarning Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatiga amaliy joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini rivojlantirish, ekologik, iqtisodiy, institutsional va raqamli boshqaruv mexanizmlarini integratsiyalash, hududiy boshqaruv samaradorligini integral baholash uslubiyotini takomillashtirish hamda ekonometrik modellashtirish va ssenariyli prognozlash asosida strategik boshqaruv qarorlarini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyotga o‘tish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va hududiy boshqaruvni takomillashtirishga oid O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, hududiy ekologik boshqaruv samaradorligini oshirish, yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish, raqamli monitoring tizimlarini rivojlantirish va istiqbol ko‘rsatkichlarini prognozlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalaridan oliy ta’lim muassasalarida “Menejment”, “Strategik menejment”, “Ekologik menejment”, “Yashil iqtisodiyot”, “Mintaqaviy

iqtisodiyot”, “Barqaror rivojlanish iqtisodiyoti” va “Innovatsion menejment” fanlarini o‘qitishda, o‘quv-uslubiy materiallar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

mintaqaviy ekologik boshqaruv tizimi davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyatlar va xususiy sektor o‘rtasidagi ko‘p darajali institutsional hamkorlik asosida integratsiyalashgan model sifatida taklif etilib, markaziy element sifatida davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmining tizimli roli asoslab berilganligi bo‘yicha taklifi Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil 17-sentabrdagi 07-07/12173-sonli ma’lumotnomasi.) Natijada hududiy ekologik boshqaruv subyektlari faoliyatini yagona tizimga integratsiyalash, xususiy investitsiyalarni ekologik loyihalarga jalb etish, boshqaruv qarorlarining muvofiqlashtirilishini kuchaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashning samarali institutsional mexanizmi shakllantirilan.

ekologik standartlar, kvotalar va rag‘batlantiruvchi mexanizmlar o‘zaro bog‘liqlikda qo‘llanilganda boshqaruv samaradorligi oshishi ilmiy jihatdan izohlangan hamda raqamli texnologiyalarni ekologik boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish orqali monitoring, nazorat va Qaror qabul qilish tizimini takomillashtirish imkoniyati konseptual model darajasida ishlab chiqilganligi bo‘yicha taklifi Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil 17-sentabrdagi 07-07/12173-sonli ma’lumotnomasi.) Natijada ekologik standartlar, kvotalar va rag‘batlantirish instrumentlarini integratsiyalashgan holda qo‘llash orqali hududiy ekologik boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmi hamda raqamli monitoring va nazorat asosida boshqaruv qarorlarini takomillashtirishning konseptual modeli ishlab chiqildi.

“agile–yashil–raqamli” integratsiyalashgan boshqaruv modeli asosida mintaqaviy ekologik boshqaruv samaradorligini miqdoriy jihatdan oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan bo‘lib, modelni joriy etish natijasida boshqaruv jarayonlarida Qaror qabul qilish tezligi o‘rtacha 25–30% ga oshishi, resurslardan foydalanish samaradorligi 20–25% ga yaxshilanishi, ekologik zararli chiqindilar hajmi 15–20% ga kamayishi va raqamli texnologiyalar orqali monitoring hamda nazorat aniqligi 30–35% ga ortishi ilmiy jihatdan asoslanganligi bo‘yicha taklifi Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil 17-sentabrdagi 07-07/12173-sonli ma’lumotnomasi). Natijada “agile–yashil–raqamli” integratsiyalashgan boshqaruv modeli ishlab chiqilib, mintaqaviy ekologik boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmi shakllantirildi hamda raqamli monitoring va nazorat tizimi takomillashtirildi.

barqaror rivojlanish modeli jamiyat, iqtisodiyot va ekologiya o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyalashgan tizim sifatida takomillashtirilib, ularning kesishgan nuqtalarida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik va ekologik-iqtisodiy omillarning kompleks ta’siri ilmiy asosda tizimlashtirilganligi bo‘yicha taklifi Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil 17-sentabrdagi 07-07/12173-sonli ma’lumotnomasi). Natijada jamiyat, iqtisodiyot va ekologiya manfaatlarini uyg‘unlashtiruvchi barqaror

rivojlanish modeli takomillashtirilib, hududiy rivojlanishning kompleks baholash mexanizmi shakllantirildi.

yashil investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik va klaster mexanizmlarining integratsiyasi asosida boshqaruv samaradorligini oshirishning kompleks KPI modeli ishlab chiqilib, 2030-yilgacha avtomatlashtirish darajasini 72 %, foydalanuvchi qoniqishini 0,90 va onlayn murojaatlarni 7 500 taga yetkazish prognozlari asoslanganligi bo‘yicha taklifi Qashqadaryo viloyati hokimligi faoliyatida foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil 17-sentabrdagi 07-07/12173-sonli ma’lumotnomasi). Natijada yashil investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik va klaster mexanizmlarini integratsiyalash orqali boshqaruv samaradorligi oshirilib, tizimning raqamli, barqaror va boshqariladigan rivojlanish trayektoriyasi shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiq etilayotgan tadqiqot natijalari 3ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning hajmi 230 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekti va predmeti shakllantirilgan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy boshqaruv samaradorligining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish konsepsiyalarining evolyutsiyasi, Mintaqaviy boshqaruvda ekologik omillarning o‘rni va ahamiyati va Agile–Green–Digital menejment yondashuvining nazariy modeli.

Mintaqaviy boshqaruvda ekologik omillarni o‘rganish metodologiyasi zamonaviy iqtisodiy sharoitda kompleks va integratsiyalashgan yondashuvga asoslanadi. Ushbu metodologiya iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda barqaror rivojlanish tamoyillariga tayangan holda shakllantiriladi. Bunda ekologik omillar nafaqat atrof-muhit holatini aks ettiruvchi indikatorlar sifatida, balki mintaqaviy boshqaruv samaradorligini belgilovchi muhim strategik omil sifatida talqin qilinadi.

Ekologik omillarni boshqarish metodologiyasi institutsional mexanizmlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyatlar va xususiy

sektor o‘rtasidagi hamkorlikni nazarda tutadi. Davlat-xususiy sheriklik (PPP), ekologik standartlar, kvotalar va rag‘batlantiruvchi mexanizmlar orqali ekologik boshqaruv samaradorligini oshirish mumkin. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va monitoring tizimlaridan foydalanish boshqaruv jarayonining shaffofligi va tezkorligini ta’minlaydi (1-rasm).

Yakuniy bosqichda ekologik boshqaruv natijalari kompleks baholanib, ekologik barqarorlik, resurslardan foydalanish samaradorligi va ijtimoiy farovonlik darajasi aniqlanadi. Shu asosda mintaqaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Umuman olganda, mazkur metodologiya ekologik omillarni boshqaruv tizimiga integratsiyalash orqali iqtisodiy o‘sish va ekologik muvozanat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Ekologik boshqaruvda davlat–xususiy hamkorlik va raqamli texnologiyalar integratsiyasi modeli[7]

Mazkur infografika mintaqaviy ekologik boshqaruvning institutsional mexanizmlar asosidagi integratsiyalashgan modelini aks ettiradi. Rasmning umumiy mazmuni davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyatlar va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik orqali ekologik boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilganligini ko‘rsatadi. Bunda ekologik boshqaruv alohida yo‘nalish sifatida emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar bilan uzviy bog‘langan kompleks boshqaruv tizimi sifatida talqin etilgan.

[7] Manba: muallif tomonidan sun’iy intellekt vositalari yordamida vizuallashtirilgan.

Rasm markazida joylashgan Davlat-xususiy sheriklik (PPP) elementi modelning asosiy yadrosi hisoblanadi. Ushbu element davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni ifodalab, ekologik muammolarni hal etishda resurslar va imkoniyatlarni birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. PPP mexanizmi orqali investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni joriy etish va boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi, bu esa ekologik boshqaruv tizimining asosiy drayveri sifatida namoyon bo‘ladi. Agile komponenti boshqaruv tizimining moslashuvchanligini ta’minlab, tezkor qaror qabul qilish, o‘zgaruvchan muhitga moslashish va risklarni minimallashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv iterativ boshqaruv, feedback mexanizmlari va jarayonlarni bosqichma-bosqich takomillashtirishga asoslanadi. Natijada boshqaruv tizimi statik emas, balki dinamik va adaptiv xarakterga ega bo‘lib, yangi iqtisodiy va ekologik sharoitlarga tez moslasha oladi.

Agile–Green–Digital menejment yondashuvi zamonaviy boshqaruv paradigmasining yangi bosqichini ifodalaydi. U boshqaruv tizimini moslashuvchan, barqaror va raqamli asosda rivojlantirish orqali mintaqaviy va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi hamda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining ilmiy-metodologik asosini yaratadi. Kane va hammualliflar[8] raqamli yetuklikni tashkilot samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida baholab, boshqaruvda raqamli transformatsiyaning ahamiyatini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Agile–Green–Digital menejment yondashuvi bo‘yicha xorijiy olimlar tadqiqotlari tahlili[9]

Muallif	Asosiy g‘oya	Model/Yondashuv	Natija (ilmiy xulosa)
Rigby, Sutherland & Takeuchi (2016)	Moslashuvchan boshqaruv zarurati	Agile menejment	Tezkor qaror qabul qilish va samaradorlik oshadi
Denning (2018)	Agile – boshqaruv transformatsiyasi	Agile tashkilot modeli	Innovatsion rivojlanish va moslashuvchan tizim shakllanadi
Elkington (1997)	Iqtisodiy–ijtimoiy–ekologik integratsiya	Triple Bottom Line	Barqaror rivojlanish modeli shakllanadi
Porter & van der Linde (1995)	Ekologiya va raqobat uyg‘unligi	Porter gipotezasi	Ekologik talablar innovatsiyalarni rag‘batlantiradi
OECD (2011)	Yashil o‘sish konsepsiyasi	Green Growth modeli	Resurs samaradorligi va ekologik barqarorlik oshadi
Westerman et al. (2014)	Raqamli transformatsiya ahamiyati	Digital transformation modeli	Tashkilot samaradorligi va boshqaruv sifati oshadi
Bharadwaj et al. (2013)	IT va biznes integratsiyasi	Digital strategiya	Raqamli boshqaruv tizimi shakllanadi
Kane et al. (2015)	Raqamli yetuklik muhimligi	Digital maturity modeli	Qaror qabul qilish tezligi va aniqligi oshadi
Geissdoerfer et al. (2017)	Aylanma iqtisodiyot	Circular economy modeli	Resurslardan samarali foydalanish ta’minlanadi
Sutherland & Schwaber (2017)	Iterativ boshqaruv tizimi	Scrum (Agile) modeli	Moslashuvchan va samarali boshqaruv tizimi yaratiladi

[8] Kane, G. C., Palmer, D., Phillips, A., Kiron, D., & Buckley, N. (2015). Strategy, not technology, drives digital transformation. MIT Sloan Management Review.

[9] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy olimlar tadqiqotlarida zamonaviy boshqaruv tizimlari uch asosiy yo‘nalish - moslashuvchanlik (Agile), ekologik barqarorlik (Green) va raqamli transformatsiya (Digital) asosida shakllanmoqda. Ushbu yondashuvlar dastlab alohida ilmiy konsepsiyalar sifatida rivojlangan bo‘lsa-da, bugungi kunda ular integratsiyalashgan boshqaruv modeliga aylangan. Xususan, Agile yondashuv boshqaruv tizimini tezkor va moslashuvchan qilishga xizmat qilsa, Green konsepsiyasi resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni ta’minlashni nazarda tutadi, Digital esa boshqaruvni texnologik jihatdan takomillashtiradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Agile yo‘nalishidagi tadqiqotlar (Rigby, Denning, Sutherland) boshqaruv tizimining moslashuvchanligi va tezkorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ular ayniqsa o‘zgaruvchan muhitda samarali qaror qabul qilish mexanizmlarini ishlab chiqishga e’tibor qaratadi. Ushbu yondashuvlar boshqaruv jarayonlarini iterativ tarzda tashkil etish, feedback mexanizmlarini joriy etish va risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada tashkilotlar va hududiy boshqaruv tizimlari yuqori darajada moslashuvchan va dinamik tus oladi.

Umuman olganda, Agile–Green–Digital menejment modelidagi kamchiliklarni bartaraf etish kompleks yondashuvni talab qiladi. Ya’ni moliyaviy, institutsional, texnologik va kadrlar bilan bog‘liq muammolarni birgalikda hal etish orqali ushbu modelni samarali joriy etish mumkin. Shu tarzda, modelning amaliy samaradorligi oshirilib, mintaqaviy boshqaruv tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish imkoniyati yaratiladi (2-jadval).

2-jadval

Agile–Green–Digital menejment modelidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari[10]

Muammo	Yechim (bartaraf etish mexanizmi)
Yuqori moliyaviy xarajatlar va investitsiya yetishmasligi	Bosqichma-bosqich joriy etish (phased approach) va davlat-xususiy sheriklik (PPP) orqali investitsiyalarni jalb qilish
Raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi	Bulutli texnologiyalar, ochiq platformalar va IT infratuzilmani modernizatsiya qilish
Kadrlar malakasining pastligi (raqamli va ekologik bilimlar yetishmasligi)	Kadrlarni qayta tayyorlash, malaka oshirish va IT mutaxassislarni jalb qilish
Institutsional nomuvofiqlik va koordinatsiya muammolari	Yagona koordinatsion markazlar tashkil etish va vakolatlarni aniq taqsimlash
Byurokratik to‘siqlar va boshqaruvning markazlashganligi	Agile yondashuv asosida boshqaruvni markazsizlashtirish va qaror qabul qilishni soddalashtirish
Ekologik standartlarga moslashishdagi qiyinchiliklar	Soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar orqali rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish
Texnologiyalarni joriy etishda qarshilik (resistance to change)	Tashkiliy madaniyatni o‘zgartirish, treninglar va motivatsion dasturlarni joriy etish
Ma’lumotlar sifati va monitoring tizimlarining yetarli emasligi	Raqamli monitoring, Big Data va sun’iy intellekt asosida boshqaruv tizimini rivojlantirish

Mazkur jadvaldan ko‘rinadiki, Agile–Green–Digital menejment modelini joriy etishda yuzaga keladigan muammolar asosan moliyaviy, institutsional, texnologik va kadrlar bilan bog‘liq omillardan iborat. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun

[10] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

kompleks yondashuv zarur bo‘lib, bunda davlat-xususiy sheriklik, raqamli transformatsiya, inson kapitalini rivojlantirish va rag‘batlantiruvchi mexanizmlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tarzda modelni bosqichma-bosqich joriy etish orqali uning amaliy samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. O‘zbekistonda Agile–Green–Digital menejment yondashuvini qo‘llash uchun zarur institutsional va strategik asoslar shakllanib bormoqda. Xususan, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yo‘naltirilgan davlat siyosati ekologik barqarorlik, raqamli transformatsiya va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bu Agile–Green–Digital modelini joriy etish uchun muhim platforma yaratadi.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekistonda mintaqaviy boshqaruv va yashil transformatsiyaning amaldagi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Mintaqalar kesimida ekologik va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili, Yashil iqtisodiyot indikatorlari (CO_2, energiya samaradorligi, resurs tejamkorlik) va Boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi ekologik va raqamli omillarni tahlil qilish amalga oshirilgan.

Mintaqalar kesimida ekologik va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish zamonaviy iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta’minlashning asosiy ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv hududiy rivojlanish jarayonlarini kompleks baholash imkonini berib, iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlash darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, sanoatlashtirish, urbanizatsiya va resurslardan intensiv foydalanish sharoitida iqtisodiy samaradorlikning ekologik omillar bilan integratsiyalashgan holda tahlil qilinishi zaruriyatga aylanmoqda.

Yashil iqtisodiyot indikatorlari hududlarning ekologik barqarorligini, resurslardan foydalanish samaradorligini va iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta’sirini kompleks baholashga xizmat qiladi. Ushbu indikatorlar tizimi odatda uchta asosiy blokdan iborat bo‘ladi:

- karbon emissiyasi (CO_2),
- energiya samaradorligi
- resurs tejamkorlik ko‘rsatkichlari.

CO_2 emissiyasi (karbon intensivligi) indikatorlari CO_2 ko‘rsatkichlari iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta’sirini baholovchi asosiy indikator hisoblanadi. Uning formulasi.

CI=CO2/GDP bu yerda, CI - karbon intensivligi, CO2 - umumiy karbon emissiyasi (tonna), GDP - yalpi hududiy mahsulot, Past qiymat → ekologik samaradorlik yuqori, Yuqori qiymat → ekologik yuklama katta

Qo‘shimcha ko‘rsatkich:

CO2pc=CO2/Population Aholi jon boshiga emissiya esa energiya samaradorligi indikatorlari energiya samaradorligi iqtisodiyotda energiyadan foydalanish unumdorligini hisoblash formulasi EE=GDP /Energy yoki EI=Energy/GDP bu yerda, EE - energiya samaradorligi, EI - energiya intensivligi, Energy - umumiy energiya iste’moli EE yuqori → samaradorlik yuqori EI past → energiya tejamkorlik yuqori Resurs tejamkorlik indikatorlari.

Resurslardan samarali foydalanish yashil iqtisodiyotning asosiy ustunlaridan biridir.

Material samaradorligi: ME=GDP/Material, Suv samaradorligi: WE=GDP/Water, Chiqindilar samaradorligi: WR=Recycled Waste/Total Waste ME, WE yuqori → resurslardan samarali foydalanish, WR yuqori → ekologik barqarorlik kuchli,

Integrallashgan yashil iqtisodiyot indeksi (GEI)

Yuqoridagi indikatorlarni yagona tizimga keltirish uchun integrallashgan indeks qo‘llaniladi: $GEI=\alpha\cdot CI*+\beta\cdot EE*+\gamma\cdot ME*$

bu yerda, GEI - yashil iqtisodiyot indeksi, $*$ - normallashtirilgan qiymat, $\alpha+\beta+\gamma=1$

Namunaviy vaznlar: $\alpha=0.4$, $\beta=0.3$, $\gamma=0.3$

Yashil iqtisodiyot indikatorlari tizimi mintaqalarning ekologik barqaror rivojlanish darajasini baholashda muhim metodologik vosita hisoblanadi. Ushbu tizim karbon emissiyasi (CO_2), energiya samaradorligi va resurs tejamkorlik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olib, iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta’sirini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, karbon intensivligi iqtisodiy o‘sishning ekologik xarajatini ifodalasa, energiya samaradorligi va resurs tejamkorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini aks ettiradi. Mazkur indikatorlarning integrallashgan bahosi hududlarda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish darajasini aniqlash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval

Yashil iqtisodiyot indikatorlari tizimi va ularning og‘irlik koeffitsiyentlari[11]

№	Indikator guruhi	Indikator nomi	Belgilanishi	Og‘irlik (w_i)	Mazmuni
1	Ekologik bosim	CO_2 emissiyasi (karbon intensivligi)	CI	0.15	Iqtisodiy faoliyatning ekologik yuklamasi
		Atmosfera ifloslanishi (PM2.5)	AP	0.10	Havo sifati darajasi
		Chiqindilar hajmi	W	0.10	Atrof-muhitga chiqindilar ta’siri
2	Resurs samaradorligi	Energiya intensivligi	EI	0.10	Energiya sarfi samaradorligi
		Material samaradorligi	ME	0.10	Xomashyo resurslaridan foydalanish
		Suv samaradorligi	WE	0.10	Suv resurslaridan foydalanish
3	Energiya va iqlim	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi	RE	0.10	Yashil energiya darajasi
		Energiya samaradorligi	EE	0.05	Energiya unumdorligi
4	Ekologik holat	Havo sifati indeksi	AQI	0.05	Atrof-muhit sifati
		Biologik xilma-xillik	BD	0.05	Tabiiy resurslar barqarorligi
5	Yashil rivojlanish	Yashil investitsiyalar ulushi	GI	0.05	Ekologik investitsiya darajasi
		Yashil ish o‘rinlari	GJ	0.05	Bandlik va ijtimoiy ta’sir
		Qayta ishlash darajasi	WR	0.10	Chiqindilarni qayta ishlash

[11] Mullif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur jadvalda yashil iqtisodiyot indikatorlari tizimi beshta asosiy blokka ajratilib, har bir indikatorning mintaqaviy rivojlanishga ta’sir darajasiga qarab og‘irlik koeffitsiyentlari belgilangan. Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda ko‘kalamzorlashtirish, suv tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya va ekologik monitoring yo‘nalishlarida amaliy ishlar olib borilmoqda. Taklif etilayotgan SEI–EEI–YRII modeli ushbu iqtisodiy va ekologik natijalarni yagona metodik tizimga birlashtirib, Qarshi shahri hamda 14 ta tuman kesimida yashil rivojlanish darajasini miqdoriy baholash, ularni reytinglash va har bir hudud uchun tabaqalashtirilgan yashil boshqaruv choralarini ishlab chiqish imkonini beradi (4-jadval).

4-jadval

“Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy va ekologik samaradorlikni integrallashgan baholash hamda yashil boshqaruv qarorlarini shakllantirish mexanizmi”[12]

№	Model bosqichi	Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilgan/bajariladigan ishlar	Asosiy natija va modeldagi vazifasi
1	Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni shakllantirish	Viloyatning YAHM, sanoat, xizmatlar, qishloq xo‘jaligi, investitsiya, savdo va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlari tizimlashtiriladi. 2025-yilda YAHM 6,8 %, sanoat ishlab chiqarishi 7,2 %, bozor xizmatlari 13,6 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 4,3 % o‘sgan.	Hududlarning iqtisodiy rivojlanish va resurslardan foydalanish samaradorligini baholash uchun boshlang‘ich axborot bazasi shakllantiriladi.
2	Ekologik ko‘rsatkichlarni shakllantirish	Atmosfera, chiqindilar, suv va energiya sarfi, yashil hududlar, daraxt ekish va qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlari jamlanadi. Masalan, Ko‘kdala yo‘nalishida jami 100 km yo‘l bo‘yida 60 ming tup daraxt ekish va tomchilatib sug‘orish ishlari boshlangan; Mirishkor tumanida 3 500 tup ko‘chat ekilgan.	Viloyat va uning tumanlarining ekologik barqarorligini baholash uchun indikatorlar bazasi shakllantiriladi.
3	Yashil energetika ko‘rsatkichlari	Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligida 40 kVt quvvatli quyosh elektr stansiyasi ishga tushirilgan. Qashqadaryodagi QMK-7 nasos stansiyasi hududida esa 100 MVt quvvatli quyosh elektr stansiyasi barpo etish ishlari olib borilgan.	Qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi EEI tarkibidagi muhim indikator sifatida hisobga olinadi.
4	Normallashtirish	Iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlarning turli o‘lchov birliklari tadqiqot doirasida [0;1][0;1] intervaliga keltiriladi: Xij′=Xij−Xjmin \Xjmax−Xjmin.	Tumanlar ko‘rsatkichlarini yagona mezonda qiyoslash imkoniyati yaratiladi.
5	SEI va EEI hisoblash	Har bir tuman uchun iqtisodiy samaradorlik indeksi SEIi=∑wjXij′ va ekologik samaradorlik indeksi EEIi=∑vkZik′ hisoblanadi.	Qaysi hududda iqtisodiy yoki ekologik samaradorlik yuqori/past ekanligi aniqlanadi.
6	YRII integral indeksini aniqlash	SEI va EEI yagona integral ko‘rsatkichga birlashtiriladi: YRIIi=αSEIi+βEEIi,α+β=1. Teng vaznda: YRIIi=0.5SEIi+0.5EEIi.	Har bir tuman uchun Yashil rivojlanish integral indeksi (YRII) shakllantiriladi.
7	Hududlar reytingi va yashil boshqaruv qarori	Qashqadaryo viloyati tumanlari Ri=Rank(YRIIi) asosida reytinglanib, yuqori (0,80–1,00), barqaror (0,60–0,79), o‘rtacha (0,40–0,59) va past (0,00–0,39) guruhlarga ajratiladi.	Past EEI hududlarda ekologik investitsiyalar, past SEI hududlarda yashil biznes va investitsiya, ikkala indeks past hududlarda esa kompleks yashil transformatsiya dasturini amalga oshirish bo‘yicha manzilli boshqaruv qarorlari ishlab chiqiladi.

[12] Mullif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur jadvaldan ko‘rinadiki, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni shakllantirish bosqichi Qashqadaryo viloyatining hududiy iqtisodiy salohiyatini kompleks baholash uchun boshlang‘ich axborot bazasini shakllantirishga xizmat qiladi. YAHM, sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sohasi, qishloq xo‘jaligi, investitsiyalar va savdo kabi ko‘rsatkichlarning tizimlashtirilishi hududning iqtisodiy faolligi va resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Xususan, 2025-yilda viloyatda YAHMning 6,8 foizga, sanoat ishlab chiqarishining 7,2 foizga, bozor xizmatlarining 13,6 foizga hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining 4,3 foizga o‘sishi iqtisodiy rivojlanish sur’atlari ijobiy ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichlar keyingi bosqichda iqtisodiy samaradorlik indeksini - SEIni shakllantirishning asosiy empirik bazasi hisoblanadi. Umuman olganda, taklif etilgan indikatorlar tizimi O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot rivojlanish darajasini kompleks baholash imkonini beradi. Ushbu tizim orqali ekologik bosimni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va energiya tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilish mumkin.

∑wi=1.00\sum w_i = 1.00∑wi=1.00

Mazkur jadval Qashqadaryo viloyatining tabiiy-iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan yashil iqtisodiyot indikatorlari tizimini aks ettiradi. Unda ekologik bosim, resurslardan foydalanish samaradorligi, energetika tizimi, ekologik holat va yashil rivojlanish ko‘rsatkichlari kompleks tarzda birlashtirilgan. Indikatorlarga berilgan og‘irliklar hudud uchun dolzarb muammolar - suv resurslari tanqisligi, sanoat yuklamasi va energiya samaradorligini oshirish zaruratiga asoslangan.

Natijada mamlakatda barqaror va muvozanatli iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy asos yaratiladi (5-jadval).

5-jadval

Qashqadaryo viloyati uchun yashil iqtisodiyot indikatorlari tizimi[13]

№	Indikator guruhi	Indikator nomi	Belgilanishi	O‘lchov birligi	Og‘irlik (w_i)	Hududiy ahamiyati
1	Ekologik bosim	CO_2 emissiyasi (jon boshiga)	CO_2pc	tonna/kishi	0.14	Sanoat va energetika ta’siri
		Atmosfera ifloslanishi (PM2.5)	PM	mkg/m³	0.08	Havo sifati
		Sanoat chiqindilari	W	mln tonna	0.08	Ekologik yuklama
2	Resurs samaradorligi	Energiya intensivligi	EI	kWh/YAIM	0.10	Energiya sarfi samaradorligi
		Suv samaradorligi	WE	m³/YAIM	0.10	Sug‘orish tizimi uchun muhim
		Yer resurslari samaradorligi	LE	%	0.08	Q/x yerlaridan foydalanish
3	Energiya va iqlim	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi	RE	%	0.10	Quyosh energiyasi salohiyati
		Energiya samaradorligi	EE	YAIM/kWh	0.07	Texnologik daraja

[13] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4	Ekologik holat	Havo sifati indeksi	AQI	indeks	0.06	Atmosfera holati
		Suv sifati darajasi	WQ	indeks	0.05	Ichimlik va sug‘orish suvi
		O‘rmonlar ulushi	FO	%	0.04	Ekologik barqarorlik
5	Yashil rivojlanish	Yashil investitsiyalar	GI	%	0.04	Ekologik loyihalar
		Yashil ish o‘rinlari	GJ	%	0.03	Bandlik
		Qayta ishlash darajasi	WR	%	0.03	Chiqindi boshqaruvi

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida ekologik bosim indikatorlari, ayniqsa CO_2 emissiyasi (0.14) eng yuqori og‘irlikka ega bo‘lib, bu hududda sanoat va yoqilg‘i-energetika kompleksining atrof-muhitga sezilarli ta’siri mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga, suv samaradorligi (0.10) indikatoriga yuqori ahamiyat berilishi viloyatning agrar yo‘nalishi va suv resurslaridan intensiv foydalanish bilan izohlanadi.

Energiya va resurs samaradorligi indikatorlari (EI, WE, LE) umumiy tizimda katta ulushga ega bo‘lib, bu iqtisodiyotning samaradorligini oshirish uchun resurslardan oqilona foydalanish muhim ekanligini ko‘rsatadi. Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (0.10) esa hududda quyosh energetikasini rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini bildiradi. Ekologik holat indikatorlari nisbatan pastroq og‘irlikka ega bo‘lsa-da, ular hududning ekologik barqarorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yashil rivojlanish indikatorlari (investitsiya, bandlik, qayta ishlash) esa iqtisodiyotning “yashillashuv” darajasini ko‘rsatib, uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyati uchun ishlab chiqilgan ushbu indikatorlar tizimi hududning ekologik-iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. Ushbu tizim asosida viloyatda resurslardan samarali foydalanish, ekologik yuklamani kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq strategik yo‘nalishlarni belgilash mumkin.

Dissertatsiyaning **“Mintaqaviy boshqaruv samaradorligini baholashning yashil-integratsiyalashgan metodikasini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida Hududlarda barqaror rivojlanish va yashil boshqaruv modelini joriy etish mexanizmini takomillashtirish, Yashil iqtisodiyotga o‘tishning strategik ssenariylari va “Green Management Efficiency Index (GMEI)” integral indeksini ishlab chiqish tadqiq etilgan.

Hududlarda barqaror rivojlanish va yashil boshqaruv modelini joriy etishda mavjud muammolarni bartaraf etish uchun kompleks institutsional, iqtisodiy va texnologik mexanizmlarni uyg‘unlashtirishning ob’ektiv zarurligi, avvalo, zamonaviy iqtisodiy tizimlarning murakkab va ko‘p omilli xarakteri bilan izohlanadi. Xususan, ekologik muvozanatni ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o‘sishni barqaror davom ettirish bir vaqtning o‘zida turli darajadagi boshqaruv qarorlarini talab etadi.

Bu esa faqatgina alohida mexanizmlar doirasida emas, balki ularning o‘zaro integratsiyasi orqali amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Institutsional mexanizmlar orqali normativ-huquqiy asos va boshqaruv tizimi mustahkamlanadi, iqtisodiy mexanizmlar orqali rag‘batlantirish va moliyalashtirish manbalari

shakllantiriladi, texnologik mexanizmlar esa raqamli boshqaruv, monitoring va tahlil jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu mexanizmlarning uyg‘unlashuvi hududiy rivojlanish jarayonlarida tizimli muammolarni kamaytirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga keng joriy etishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Unda iqtisodiy o‘sish, ekologik muvozanat va ijtimoiy farovonlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik formulalar asosida ochib berilib, bu model ilmiy-tadqiqot va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi (2-rasm).



2-rasm. Hududlarda barqaror rivojlanishni ta’minlashning ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik integratsiyalashgan modeli (Agile–Green–Digital yondashuv asosida)[14]

2-rasm barqaror rivojlanishning klassik “Triple Bottom Line” (Jamiyat–Iqtisodiyot–Ekologiya) modelini ifodalaydi. Unda uch asosiy komponent – jamiyat, iqtisodiyot va ekologiya o‘zaro kesishgan holda markazda barqaror rivojlanish tushunchasini shakllantiradi. Model hududiy boshqaruvda resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni ekologik muvozanat asosida uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Diagnostika va kompleks tahlil bosqichida hududning ekologik (CO_2 emissiyasi, resurslardan foydalanish), iqtisodiy (ishlab chiqarish samaradorligi, investitsiya faolligi) va texnologik (raqamli infratuzilma darajasi) holati chuqur

[14] Muallif ishlanmasi.

tahlil qilinadi. Ushbu bosqich muammolarni aniqlash va keyingi qarorlar uchun analitik asos yaratadi.

Strategik maqsad va ustuvor yo‘nalishlarni belgilash bosqichida **t**ahlil natijalari asosida hududiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari, yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, ekologik va raqamli transformatsiya maqsadlari aniqlanadi hamda aniq indikatorlar (KPI) tizimi shakllantiriladi.

Institutsional mexanizmlarni shakllantirish bosqichida normativ-huquqiy baza takomillashtirilib, davlat boshqaruvi tizimi, davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlari va boshqaruv institutlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar mustahkamlanadi. Bu esa modelning barqaror ishlashini ta’minlaydi.

Iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarni joriy etish bosqichida **y**ashil loyihalarni moliyalashtirish uchun investitsiya instrumentlari (yashil obligatsiyalar, subsidiyalar, grantlar) joriy etiladi, resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqiladi.

Texnologik va raqamli transformatsiya bosqichida IoT, Big Data, sun’iy intellekt va elektron hukumat tizimlari asosida boshqaruv jarayonlari raqamlashtiriladi, monitoring va tahlil qilishning zamonaviy platformalari joriy etiladi.

Integratsiyalashgan boshqaruv va muvofiqlashtirish bosqichi, **i**nstitutsional, iqtisodiy va texnologik mexanizmlar o‘zaro uyg‘unlashtirilib, yagona boshqaruv tizimi shakllantiriladi. Bu esa resurslardan kompleks foydalanish va qaror qabul qilish samaradorligini oshiradi.

Monitoring, baholash va takomillashtirish bosqichi, model samaradorligini baholash uchun integrallashgan indikatorlar tizimi (SEI, TEI va boshqalar) qo‘llanilib, real vaqt rejimida monitoring olib boriladi hamda natijalarga asoslangan holda tizim doimiy ravishda takomillashtirib boriladi.

Natijaviylik va barqaror rivojlanishga erishish bosqichida, yakuniy bosqichda ekologik barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlik o‘rtasida muvozanat ta’minlanadi hamda hududiy rivojlanishning barqaror modeli shakllanadi.

Rasm markazida joylashgan uchta asosiy komponent – iqtisodiy o‘sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik – barqaror rivojlanishning asosiy ustunlari sifatida ifodalangan. Ularning o‘zaro muvozanati barqaror rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi.

Modelda asosiy formulalardan biri sifatida:

$SD = \alpha Ec + \beta S + \gamma En$

keltirilgan bo‘lib, u barqaror rivojlanishning integrallashgan indeksini ifodalaydi. Bu yerda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar muayyan vaznlar orqali baholanadi.

Yashil iqtisodiyot darajasini aniqlash uchun:

$GE = (RE + EE + GT) / 3$

formulasi berilgan. Bu model qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi va yashil texnologiyalar darajasini kompleks baholash imkonini beradi.

Ekologik va iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi:

$CO_2 = \delta Y - \theta GE$

formulasi orqali iqtisodiy o‘sish va yashil iqtisodiyot o‘rtasidagi munosabat ko‘rsatilgan. Bu yerda yashil iqtisodiyot oshgani sari ekologik zarar kamayishi ilmiy asosda ifodalangan.

Iqtisodiy transformatsiya modeli orqali yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni iqtisodiy tizimga qanday ta’sir qilishi ko‘rsatilgan. Bu blok iqtisodiy tizimning ekologik yo‘naltirilgan modernizatsiyasini ifodalaydi.

Barqarorlik sharti sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o‘rtasidagi muvozanat zarurligi ko‘rsatilgan. Bu nazariy jihatdan barqaror rivojlanishning asosiy prinsipi hisoblanadi.

SEI integrallashgan modeli

$SEI = w_1I + w_2S + w_3D + w_4T + w_5GE$

formulasi hududiy rivojlanishning kengaytirilgan indeksini ifodalaydi. Bu model investitsiya, ijtimoiy, demografik, texnologik va yashil iqtisodiyot omillarini birlashtiradi.

Vizual elementlar (energiya va texnologiyalar) quyosh panellari, shamol generatorlari va elektromobil kabi elementlar tasvirlangan bo‘lib, ular yashil texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ifodalaydi. Bu esa modelning amaliy yo‘nalishini ko‘rsatadi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish va barqaror rivojlanish modelini ifodalovchi formulalar tizimi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarni yagona integrallashgan tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bu yondashuv hududiy rivojlanishni kompleks baholashning zamonaviy metodologik asosini tashkil etadi. Barqaror rivojlanishning asosiy formulasi (SD modeli) iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi. Ushbu model har bir komponentning rivojlanishga qo‘shgan hissasini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiya ishining **“Yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsion menejment mexanizmlarini joriy etish”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida Agile–Green–Digital boshqaruv modeli (konseptual model), Yashil investitsiyalar, PPP va klaster mexanizmlari orqali boshqaruv samaradorligini oshirish va Sun’iy intellekt va raqamli platformalar asosida ekologik monitoring va qaror qabul qilish tizimi takomillashtirish borasidagi masalalar atroflicha yoritilgan.

Zamonaviy globallashuv, iqlim o‘zgarishi, resurslar cheklanganligi va raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida hududlarning barqaror rivojlanishini ta’minlash boshqaruv tizimlariga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. An’anaviy boshqaruv yondashuvlari tez o‘zgarayotgan tashqi muhitga moslashish, ekologik xavflarni kamaytirish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalalarini kompleks hal etishda yetarli darajada samarali bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli hududiy boshqaruvda iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va texnologik yangilanishni yagona tizimda birlashtiruvchi integratsiyalashgan boshqaruv modelini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, modelning ijtimoiy yo‘nalishi aholi turmush darajasini oshirish, yangi va sifatli ish o‘rinlarini yaratish, inson kapitalini rivojlantirish hamda ekologik madaniyatni shakllantirish bilan bog‘liq. Raqamli texnologiyalar orqali aholining

davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, davlat xizmatlarining ochiqligi va qulayligini oshirish hamda ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash hududning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlaydi (3-rasm).



3-rasm. Hududlarda moslashuvchan, yashil va raqamli boshqaruvning integratsiyalashgan Agile–Green–Digital modeli[15]

3-rasmda hududlarda barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan moslashuvchan, yashil va raqamli boshqaruvning integratsiyalashgan Agile–Green–Digital modeli aks ettirilgan. Modelning asosini Agile, Green va Digital komponentlarining o‘zaro integratsiyasi tashkil etib, Agile komponenti boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga moslashishni, Green komponenti resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilar va karbon emissiyalarini kamaytirishni, Digital komponenti esa IoT, Big Data, sun’iy intellekt, geoinformatsion tizimlar va elektron hukumat texnologiyalari asosida real vaqt rejimida monitoring va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvni ta’minlaydi. Modelda moliyaviy, tabiiy, insoniy, texnologik va institutsional resurslar boshqaruv jarayoniga jalb qilinib, “monitoring → tahlil → muammo va imkoniyatlarni aniqlash → qaror qabul qilish → amalga oshirish → baholash → qayta aloqa” ketma-ketligi orqali boshqaruvning uzluksiz sikli shakllantirilgan. Model samaradorligini iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy, institutsional

[15] Manba: muallif tomonidan sun’iy intellekt vositalari yordamida vizuallashtirilgan.

va texnologik ko‘rsatkichlar hamda GMEI va SEI integrallashgan indekslari orqali baholash nazarda tutilgan. Natijada mazkur model sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi, transport, kommunal xo‘jalik va xizmatlar sohalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni mustahkamlash, boshqaruv shaffofligini ta’minlash va hududlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi yaxlit boshqaruv mexanizmini shakllantiradi.

Hududlar kesimida yashil investitsiyalar, PPP va klaster mexanizmlarining integratsiyasi, ayniqsa, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda katta ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv orqali hududiy infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, qo‘shilgan qiymat zanjirlarini kengaytirish va ekologik yuklamani kamaytirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish uchun ham ushbu mexanizmlardan foydalanish mumkin.

Umuman olganda, sun’iy intellekt va raqamli platformalar asosida ekologik monitoring hamda boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish hududiy boshqaruvning tezkorligi, aniqligi, shaffofligi va proaktivligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tizimning asosiy afzalligi ekologik ma’lumotlarni shunchaki yig‘ish emas, balki ularni real vaqt rejimida tahlil qilish, kelgusidagi ekologik xavflarni prognozlash va mazkur natijalarni aniq boshqaruv qarorlariga aylantirish imkoniyatidadir. Natijada raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining axborot-analitik asosini shakllantirib, iqtisodiy rivojlanish, ekologik xavfsizlik va hududiy boshqaruv samaradorligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi (6-jadval)

6-jadval

Sun’iy intellekt va raqamli platformalar asosida ekologik monitoring hamda boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari[16]

№	Texnologik yechim	Asosiy funksiyasi	Boshqaruv samaradorligiga ta’siri
1	IoT + sensorlar	Ekologik ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish	Monitoring tezkorligi va uzluksizligi oshadi
2	Big Data	Katta hajmdagi ekologik ma’lumotlarni integratsiyalash va qayta ishlash	Kompleks tahlil imkoniyati kengayadi
3	Machine Learning	Ekologik ko‘rsatkichlar o‘zgarishini aniqlash	Prognozlash aniqligi oshadi
4	Deep Learning	Murakkab ekologik jarayonlarni modellashtirish	Ekologik xavflarni chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi
5	Computer Vision	Video va tasvirlar orqali ekologik buzilishlarni aniqlash	Nazoratning avtomatlashtirilishi ta’minlanadi
6	GIS	Ekologik muammolarni hududiy xaritalashtirish	Resurslarni ustuvor hududlarga yo‘naltirish imkoniyati oshadi
7	AI Analytics	Ekologik ko‘rsatkichlarni real vaqt rejimida tahlil qilish	Qaror qabul qilish tezligi oshadi

[16] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

8	Predictive AI	Ekologik xavflarni oldindan prognozlash	Profilaktik boshqaruv mexanizmi shakllanadi
9	DSS	Muqobil boshqaruv qarorlarini baholash	Optimal qaror tanlash imkoniyati oshadi
10	Digital platforma	Monitoring, tahlil va boshqaruv jarayonlarini yagona tizimga birlashtirish	Boshqaruvning shaffofligi va samaradorligi oshadi

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt va raqamli platformalarning ekologik boshqaruvdagi samarasi ularning alohida qo‘llanilishidan ko‘ra yagona tizim sifatida integratsiyalashuvi orqali yuqori natija beradi. IoT va sensorlar real vaqt ma’lumotlarini shakllantirsa, Big Data ularni birlashtiradi, AI texnologiyalari tahlil va prognozlashni amalga oshiradi, GIS ekologik xavflarning hududiy taqsimotini ko‘rsatadi, DSS esa olingan natijalar asosida optimal boshqaruv qarorini tanlashni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu sababli mazkur tizim “ma’lumot → tahlil → prognoz → qaror → nazorat” tamoyili asosida ishlaydigan proaktiv ekologik boshqaruv modelini shakllantiradi.

Sun’iy intellekt va raqamli platformalar asosida ekologik monitoring samaradorligini baholovchi AIMI (AI Monitoring Index)

1. Asosiy integral model

$$AIMI=\alpha ML+\beta DL+\gamma CV+\delta PA+\theta IoT+\lambda NLP+\mu ES+\nu DT+\xi SA$$

2. Model komponentlari (izohi)

- ML – Machine Learning samaradorligi
- DL – Deep Learning orqali ma’lumotlarni qayta ishlash darajasi
- CV – Computer Vision orqali monitoring aniqligi
- PA – Predictive Analytics (prognozlash darajasi)
- IoT – sensorlar va real vaqt monitoring darajasi
- NLP – matnli ma’lumotlarni tahlil qilish (aholi murojaatlari)
- ESE– Expert Systems (qaror qabul qilish sifati)
- DT – Digital Twin (model va simulyatsiya darajasi)
- SA – Smart Automation (avtomatlashtirish darajasi)

Vaznlar:

$$\alpha+\beta+\gamma+\delta+\theta+\lambda+\mu+\nu+\xi=1$$

3. Platforma integratsiya modeli

$$PL=BD+CL+GIS+DSS+SC\ /5$$

- BD – Big Data platformasi
- CL – Cloud tizimi
- GIS – geografik axborot tizimi
- DSS – Decision Support System
- SC – Smart City platformasi

4. Yakuniy integratsiyalashgan model

$$AIMI*=AIMI\times PL$$

Bu formula: AI texnologiyalari samaradorligi + platforma integratsiyasi = haqiqiy monitoring samaradorligi

5. Normallashtirish formulasi

$$X*=X-Xmin\ /\ Xmax-Xmin$$

Barcha indikatorlar 0–1 oralig‘iga keltiriladi

6. Ekologik natijaviylik modeli

$EM=\rho1(1-CO2)+\rho2AQ+\rho3WQ+\rho4WM$

- $CO2$ – karbon emissiyasi
- AQ– havo sifati
- WQ – suv sifati
- WM – chiqindilarni boshqarish

7. Yakuniy boshqaruv samaradorligi modeli

$ME=\omega1AIMI*+\omega2EM+\omega3DG$

- ME – boshqaruv samaradorligi
- $AIMI*$ – AI monitoring indeksi
- EM – ekologik natijaviylik
- DG – raqamli boshqaruv darajasi

8. Baholash shkalasi

AIMI qiymati	Talqin
0.80 – 1.00	Juda yuqori monitoring
0.60 – 0.79	Yuqori
0.40 – 0.59	O‘rtacha
0.20 – 0.39	Past
0.00 – 0.19	Juda past

9. Modelning ilmiy yangiligi

Mazkur AIMI modeli:

-AI texnologiyalarini birinchi marta kompleks indeksga birlashtirad

-Platforma + AI integratsiyasini hisobga oladi

-Ekologik monitoringni real vaqt baholaydi

-Qaror qabul qilish sifatini o‘lchaydi

AIMI modeli sun’iy intellekt va raqamli platformalar asosida ekologik monitoring samaradorligini baholashning integrallashgan matematik modelidir. Ushbu model real vaqt monitoring, prognozlash va optimal qaror qabul qilishni ta’minlab, yashil iqtisodiyot sharoitida boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi (7-jadval).

7-jadval

AIMI (AI Monitoring Index) modeli uchun indikatorlar va og‘irlik koeffitsiyentlari tizimi[17]

№	Komponent (indeks)	Belgilanishi	Asosiy indikatorlar	Og‘irlik (w_i)
1	Machine Learning samaradorligi	MLMLML	Prognoz aniqligi, model o‘qitish sifati	0.12
2	Deep Learning	DLDLDL	Katta ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi	0.10
3	Computer Vision	CVCVCV	Monitoring aniqligi (havo, suv)	0.10
4	Predictive Analytics	PAPAPA	Ekologik prognozlash darajasi	0.12
5	IoT integratsiyasi	IoTIoTIoT	Sensorlar orqali real vaqt monitoring	0.14
6	NLP texnologiyasi	NLPNLPNLP	Aholi murojaatlari tahlili	0.08
7	Expert Systems	ESESES	Qaror qabul qilish sifati	0.10
8	Digital Twin	DTDTDT	Ekologik modellashtirish darajasi	0.12
9	Smart Automation	SASASA	Avtomatlashtirish darajasi	0.12
	JAMI			1.00

[17] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur jadval AIMI modelining asosiy tarkibiy qismlarini aks ettirib, sun’iy intellekt texnologiyalarining ekologik monitoring tizimidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Eng yuqori og‘irlik IoT komponentiga (0.14) berilgan bo‘lib, bu real vaqt monitoringning muhimligini anglatadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, AIMI modeli sun’iy intellekt texnologiyalarini kompleks tarzda baholash imkonini beradi. Ushbu og‘irliklar tizimi ekologik monitoringning samaradorligini oshirish, real vaqt nazoratni kuchaytirish va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi (1-rasm).



4-rasm. “Sun’iy intellekt (AIMI) va yashil boshqaruv samaradorligi (GMEI) integratsiyasi asosida ekologik monitoring va barqaror rivojlanish konseptual modeli (A3 infografika)”[18]

Sun’iy intellekt asosidagi ekologik monitoring tizimi (AIMI) va yashil boshqaruv samaradorligi indeksi (GMEI) o‘rtasidagi integratsiyani ifodalaydi. Unda raqamli texnologiyalar va ekologik boshqaruv uyg‘unlashuvi orqali barqaror rivojlanishga erishish g‘oyasi asosiy konseptual yo‘nalish sifatida aks ettirilgan. “AI monitoring tizimi (AIMI)” bloki sun’iy intellekt asosidagi monitoringni ifodalaydi. Bu yerda Big Data, IoT sensorlar, AI algoritmlar orqali real vaqt rejimida ekologik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish jarayonlari nazarda tutilgan. O‘ng tomonda joylashgan “Yashil boshqaruv tizimi (GMEI)” bloki ekologik barqarorlik, resurs samaradorligi va yashil iqtisodiyot tamoyillarini aks ettiradi. Bu komponent boshqaruv qarorlarini ekologik mezonlar asosida qabul qilishni ifodalaydi.

Markaziy qismi ikki tizim o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Bu yerda AI orqali olingan ma’lumotlar GMEI ko‘rsatkichlariga uzatiladi va natijada ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlari shakllanadi. Bu integratsiya modelning asosiy ilmiy yangiligini tashkil etadi. Ko‘k rang (AI va raqamli texnologiyalar) va yashil rang (ekologiya va barqarorlik) ustuvor qo‘llanilgan. Bu ranglar modelning ikki asosiy yo‘nalishini – texnologik rivojlanish va ekologik muvozanatni vizual tarzda

[18] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ifodalaydi. Rasmning pastki qismida quyosh panellari, shamol generatorlari va zamonaviy shahar tasvirlari berilgan. Bu elementlar yashil iqtisodiyotning amaliy ko‘rinishini va modelning real sektor bilan bog‘liqligini aks ettiradi. Zamonaviy shahar infratuzilmasi tasviri raqamli boshqaruv va yashil iqtisodiyot integratsiyasi orqali “smart city” konsepsiyasining shakllanishini ko‘rsatadi. Bu modelning hududiy boshqaruvga ta’sirini ifodalaydi.

Dissertatsiya ishining “**Mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari**” deb nomlangan beshinchi bobida Yashil iqtisodiyot ekologik va iqtisodiy boshqaruv samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari, Yashil iqtisodiyot ekologik va iqtisodiy boshqaruv samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillar va Ekonometrik prognozlar asosida boshqaruv samaradorligini oshirish istiqbollari.

Yashil iqtisodiyot sharoitida boshqaruv samaradorligini oshirishning mohiyati iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jarayonlarni yagona tizimga integratsiya qilishdan iborat. Bu yondashuv resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlashni nazarda tutadi. Mazkur strategik yo‘nalishlar tizimli yondashuv, ekonometrik modellar (regressiya, panel modellar) va integrallashgan indekslar (GMEI, AIMI) asosida shakllanadi. Bu esa boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Mazkur paragrafda ekonometrik yondashuvning asosiy maqsadi yashil boshqaruv samaradorligi bilan unga ta’sir etuvchi iqtisodiy, ekologik, institutsional va raqamli omillar o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni aniqlashdan iborat. Bunda natijaviy ko‘rsatkich sifatida hududiy yashil boshqaruv samaradorligi indeksi, xususan, integrallashgan GMEI (Green Management Efficiency Index) yoki unga yaqin kompleks ko‘rsatkichdan foydalanish mumkin. Tushuntiruvchi omillar sifatida yashil investitsiyalar hajmi, qayta tiklanuvchi energiya ulushi, raqamli transformatsiya darajasi, ekologik monitoring qamrovi, innovatsion faollik, resurslardan foydalanish samaradorligi va institutsional rivojlanish ko‘rsatkichlarini kiritish maqsadga muvofiq (8-jadval).

8-jadval

Hududiy yashil boshqaruv samaradorligini ekonometrik modellashtirishda foydalaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar tizimi[19]

№	Ko‘rsatkich	Belgilanishi	Mazmuni	Kutilayotgan ta’sir
1	Yashil boshqaruv samaradorligi indeksi	GMEI	Iqtisodiy va ekologik boshqaruv natijadorligi	Natijaviy
2	Yashil investitsiyalar	GI	Ekologik loyihalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar	+
3	Raqamli transformatsiya	DT	Raqamli texnologiyalar va platformalardan foydalanish	+
4	Ekologik monitoring	EM	Monitoring va ekologik nazorat qamrovi	+
5	Innovatsion faollik	INN	Innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi	+

[19] Jadvalni tuzishda sun’iy intellekt vositasidan muallif tomonidan foydalanildi.

6	Qayta tiklanuvchi energiya	RES	Yashil energiya manbalaridan foydalanish	+
7	Resurs samaradorligi	RE	Energiya, suv va xomashyo samaradorligi	+
8	Institutsional rivojlanish	IR	Boshqaruv sifati va institutsional salohiyat	+
9	Ekologik yuklama	EL	Emissiya va ekologik bosim darajasi	–
10	Aholi farovonligi	AF	Yashil boshqaruvning ijtimoiy natijadorligi	+

7-jadvaldagi ko‘rsatkichlar tizimi hududiy yashil boshqaruv samaradorligining ko‘p omilli xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, yashil investitsiyalar, raqamli transformatsiya, ekologik monitoring, innovatsion faollik, qayta tiklanuvchi energiya va institutsional rivojlanishning ortishi boshqaruv samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida qaraladi. Aksincha, ekologik yuklamaning ortishi hududiy boshqaruv samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi kutiladi. Shu asosda omillarning miqdoriy ta’sirini regressiya modeli orqali baholash mumkin.

Shu sababli interaksiya koeffitsiyentlaridan foydalanish yashil boshqaruvning kompleks xususiyatini ekonometrik jihatdan ifodalash imkonini beradi.

Model parametrlarini baholashdan so‘ng uning statistik ishonchliligini tekshirish muhim hisoblanadi. Bunda determinatsiya koeffitsiyenti R2R^2, Fisher mezoni, Student mezoni, Durbin–Watson mezoni, multikollinearlik va geteroskedastiklik testlaridan foydalanish mumkin (9-jadval).

9-jadval

Ekonometrik modelning asosiy diagnostik ko‘rsatkichlari[20]

№	Mezon	Baholash vazifasi	Talqin
1	R2R^2	Modelning tushuntirish darajasi	0–1 oralig‘ida
2	Adjusted R2R^2	Omillar sonini hisobga olgan holda moslashuv	Model sifati
3	F-statistika	Modelning umumiy ahamiyatini tekshirish	Model statistik ahamiyatli
4	t-statistika	Alohida omil ahamiyatini baholash	Omil ta’siri mavjudligi
5	Durbin–Watson	Avtokorrelyatsiyani aniqlash	Qoldiqlar mustaqilligi
6	VIF	Multikollinearlikni aniqlash	Omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik
7	Breusch–Pagan testi	Geteroskedastiklikni tekshirish	Dispersiya barqarorligi
8	Jarque–Bera	Qoldiqlar taqsimotini baholash	Model diagnostikasi
9	RMSE	Prognoz xatosini baholash	Prognoz aniqligi
10	MAPE	Nisbiy prognoz xatosi	Foizdagi xatolik

Model diagnostikasining asosiy maqsadi olingan natijalarning statistik jihatdan ishonchliligini ta’minlashdan iborat. Agar modelda multikollinearlik, avtokorrelyatsiya yoki geteroskedastiklik mavjud bo‘lsa, tegishli ekonometrik usullar orqali ularni bartaraf etish va model parametrlarini qayta baholash talab etiladi. Bu esa prognoz natijalarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur mexanizmda ekonometrik model faqat mavjud holatni tahlil qiluvchi vosita sifatida emas, balki istiqboldagi boshqaruv qarorlarini asoslovchi analitik platforma sifatida namoyon bo‘ladi. Dastlab hudud bo‘yicha ekologik, iqtisodiy, institutsional va raqamli ma’lumotlar shakllantiriladi, keyin ularning boshqaruv samaradorligiga

[20] MUallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ta’siri ekonometrik model yordamida baholanadi. Olingan natijalar asosida istiqboldagi qiymatlar prognoz qilinib, turli ssenariylar ishlab chiqiladi. Prognoz natijalariga muvofiq eng katta ta’sirga ega omillar aniqlanib, ular bo‘yicha boshqaruv choralarini kuchaytirish amalga oshiriladi. Keyingi bosqichda monitoring natijalari yangi ma’lumotlar bilan modelga kiritilib, boshqaruv qarorlari qayta optimallashtiriladi.

Ekonometrik model asosida hududiy boshqaruv samaradorligining istiqboldagi qiymatlarini aniqlash strategik qarorlar qabul qilishning muhim bosqichi hisoblanadi. Bunda 2026–2035-yillar uchun bazaviy, optimistik va ehtiyotkor ssenariylarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

10-jadval

Hududiy yashil boshqaruv samaradorligini 2026–2035-yillarda prognozlash ssenariylari[21]

Ssenariy	Asosiy shartlar	Yashil investitsiya	Raqamli transformatsiya	Ekologik monitoring	Kutilayotgan natija
Ehtiyotkor	Omillar sekin faollashadi	Past o‘sish	Bosqichma-bosqich	Cheklangan	Samaradorlikning mo‘tadil o‘sishi
Bazaviy	Amaldagi tendensiyalar davom etadi	O‘rtacha o‘sish	Barqaror rivojlanish	Kengayish	Barqaror samaradorlik
Optimistik	Strategik omillar faol qo‘llanadi	Yuqori o‘sish	Tezkor raqamlashtirish	AI asosida	Samaradorlikning yuqori o‘sishi

Ssenariyli prognozlashning afzalligi shundaki, u hududiy boshqaruvning kelajakdagi natijalarini faqat bitta ehtimoliy qiymat bilan emas, balki turli boshqaruv sharoitlarida baholash imkonini beradi. Bazaviy ssenariy mavjud tendensiyalarning davom etishini, optimistik ssenariy yashil investitsiyalar, raqamli transformatsiya, innovatsiyalar va ekologik monitoringning tezlashtirilgan holda rivojlanishini, ehtiyotkor ssenariy esa moliyaviy, institutsional yoki texnologik cheklovlar saqlanib qolishini nazarda tutadi (11-jadval).

11-jadval

Ekonometrik natijalar asosida boshqaruv qarorlarini shakllantirish mexanizmi[22]

Ekonometrik natija	Aniqlanadigan holat	Boshqaruv qarori	Kutilayotgan natija
βi>0, yuqori ta’sir	Omil samaradorlikni kuchli oshiradi	Omilga investitsiyani kengaytirish	GMEI o‘sishi
βi>0, past ta’sir	Ijobiy, lekin cheklangan ta’sir	Mexanizmni takomillashtirish	Qo‘shimcha samara
βi<0	Salbiy ta’sir mavjud	Cheklov va tartibga solish	Salbiy ta’sirni kamaytirish
Statistik ahamiyatsiz	Ta’sir yetarlicha asoslanmagan	Qo‘shimcha monitoring	Modelni takomillashtirish
Prognoz pasayishi	Kelgusida risk mavjud	Profilaktik choralar	Riskni kamaytirish
Prognoz yuqori o‘sishi	Ijobiy tendensiya	Investitsiya va resurslarni kengaytirish	Barqaror o‘sish

[21] Muallif ishlanmasi.
[22] Muallif ishlanmasi.

Ekonometrik prognozlash natijalari boshqaruv samaradorligini oshirishda strategik qarorlar qabul qilishning ilmiy asosini shakllantiradi. Ayniqsa, mintaqaviy rivojlanish jarayonlarida vaqt qatorlari (trend modellari), regressiya va indeks usullaridan foydalanish orqali iqtisodiy ko‘rsatkichlarning kelajakdagi dinamikasi aniqlanadi va boshqaruv qarorlarining aniqligi oshiriladi.

Ushbu tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan kvadratik trend modellari asosida 2026–2030 yillarga mo‘ljallangan prognozlar boshqaruv samaradorligini oshirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi:

Birinchidan, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish istiqbollari aniqlanadi. Prognoz natijalariga ko‘ra, turizm obyektlari sonining o‘sishi bilan bir qatorda turistlar oqimi yanada tez sur’atlarda ortishi kuzatiladi. Bu esa “bir obyektga to‘g‘ri keladigan turistlar soni” (Q ko‘rsatkichi) oshishiga olib keladi va mavjud infratuzilmalardan maksimal foydalanish imkonini yaratadi. Natijada boshqaruv tizimi resurslarni optimal taqsimlashga yo‘naltiriladi.

Ikkinchidan, investitsiya siyosatini optimallashtirish imkoniyati kengayadi. Ekonometrik model natijalari investitsiya kiritiladigan ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash imkonini beradi. Xususan, turistlar oqimi tez o‘sayotgan hududlarda infratuzilmani kengaytirish zarurati asoslanadi, bu esa investitsiya samaradorligini oshiradi.

Uchinchidan, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish samaradorligi oshadi. Prognoz natijalari asosida real vaqt rejimida monitoring tizimlarini joriy etish orqali boshqaruv qarorlarini tezkor va moslashuvchan qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Bu Agile–Green–Digital yondashuvi asosida boshqaruv tizimining samaradorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, bandlik va ijtimoiy samaradorlikni oshirish istiqbollari kengayadi. Prognozlar turizm sohasida yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Bu esa aholi daromadlarini oshirish va hududiy ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, risklarni boshqarish tizimi takomillashadi. Ekonometrik prognozlar orqali ehtimoliy xavf va noaniqliklar oldindan aniqlanadi. Masalan, turistlar oqimining kutilganidan past bo‘lishi yoki mavsumiy tebranishlar boshqaruv qarorlariga oldindan tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Oltinchidan, barqaror va yashil rivojlanish tamoyillarini integratsiyalash imkoniyati kuchayadi. Prognoz natijalari ekologik yuklama va resurslar iste’molini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Bu esa yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos boshqaruv modelini shakllantiradi.

Yettinchidan, strategik rejalashtirish sifatining oshishi ta’minlanadi. Ekonometrik prognozlar asosida ishlab chiqilgan uzoq muddatli rivojlanish ssenariylari boshqaruv organlariga aniq yo‘nalish beradi va rejalashtirish jarayonini ilmiy asosga o‘tkazadi.

Umuman olganda, ekonometrik prognozlash natijalari boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim instrumenti sifatida quyidagi natijalarni ta’minlaydi:

- qaror qabul qilish aniqligining oshishi;
- resurslardan samarali foydalanish;

- investitsiya oqimlarini optimal taqsimlash;
- risklarni minimallashtirish;
- barqaror va inklyuziv rivojlanishni ta’minlash.

Shu bilan birga, ushbu yondashuvni amaliyotga joriy etish uchun raqamli ma’lumotlar bazasini shakllantirish, analitik platformalarni rivojlantirish va boshqaruv kadrlarining ekonometrik kompetensiyalarini oshirish zarur hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirish Agile–Green–Digital integratsiyasi asosida ekonometrik modellar orqali baholanadi. Bunda ekologik, iqtisodiy va raqamli omillar kompleks holda hisobga olinadi. hisob-kitob natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik va iqtisodiy boshqaruv samaradorligi ko‘p omilli xarakterga ega bo‘lib, uning yuqori darajasi asosan institutsional va texnologik omillar bilan ta’minlanmoqda. Shu bilan birga, ekologik blok bo‘yicha, xususan CO_2 emissiya intensivligini pasaytirish va yashil energetika ulushini yanada oshirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur holat 2026–2035-yillar strategiyasida ekologik komponentni kuchaytirish zarurligini anglatadi.

12-jadval

Yashil iqtisodiyot sharoitida boshqaruv samaradorligini oshirish bosqichlari: vazifalar va natijalar tizimi (2026–2035)[23]

№	Bosqich (yillar)	Asosiy vazifalar	Kutilayotgan natijalar
1	Diagnostika va tahlil (2026–2027)	Ekologik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni baholash (CO_2, investitsiya, bandlik); GMEI va AIMI indekslarini hisoblash	Hududlarning rivojlanish darajasi aniqlanadi, muammolar va imkoniyatlar belgilab olinadi
2	Strategik rejalashtirish (2027–2028)	Yashil iqtisodiyot strategiyasini ishlab chiqish; KPI va ustuvor yo‘nalishlarni belgilash	Uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi shakllanadi
